



International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Journal home page:
<https://journal.jbnuu.uz/>



DEFINING THE TYPES OF THE SHADOW ECONOMY

Abdujamil Kuchimov¹

Syeda Ashraf Unnisa²

Dilshod Najmiddinov³

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, IMPACT Institute of Management Studies (IIMS)

KEYWORDS

Informal economy, illegal economy, non-recorded economy, non-reported economy, second shadow economy, grey economy, black economy

ABSTRACT

This article examines research outputs of several scientists on the shadow economy and makes some clarifications on the classification of it. The authors of this article think that with the help of accurate classification, the government can make correct decisions on controlling the shadow economy rate.

2181-3884/©2023 in Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan.
DOI: 10.5281/zenodo.7871083

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Docent, Department of Social and economic sciences, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan, kuchimov7474@gmail.com

² Assistant Professor, IMPACT Institute of Management Studies (IIMS), Bengaluru, Karnataka 560092, India, syedashraf.15.may@gmail.com

³ Teacher, Department of Social and economic sciences, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan

XUFYONA IQTISODIYOTNING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Norasmiy iqtisodiyot,
Nolegal iqtisodiyot, Hisobga
olinmagan iqtisodiyot,
Ro'yxatga olinmagan
iqtisodiyot, ikkinchi yashirin
iqtisodiyot, kulrang yashirin
iqtisodiyot, qora yashirin
iqtisodiyot

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada xufyona iqtisodiyot haqidagi turli olimlarning qarashlari hamda uni klassifikatsiya qilish borasidagi bir necha tushunchalar keltirilgan. Mualliflarning fikriga ko'ra xufyona iqtisodiyotni tasniflash orqali unga qarshi kurash imkoni yanada ortadi hamda jamiyatda xufyona iqtisodiyot darajasini pasaytirish mumkin bo'ladi.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Bugungi dunyoning keskin globallashuv jarayonida bir necha iqtisodiy muammolar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Shulardan biri bu jahon miqyosida xufyona iqtisodiyot darajasining yuqoriligidir. Xufyona iqtisodiyot ko'lamini aniq o'lchashning imkonsizligi esa ushbu muammoning dolzarbligini yana bir bor oshiradi. Albatta dunyo olimlari tomonidan o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab xufyona iqtisodiyotni aniqlash, uning ko'lamini o'lchash va ta'sirlarini belgilash borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo ushbu tadqiqotlar natijalari kundan kunga eskirib bormoqda deyish mumkin. Chunki 2000-yillarning boshlarida yuritilgan texnologiyalar asosida hozirda deyarli hujjatlar yuritilmaydi. Bugungi kun axborot kommunikatsiya texnologiyalar kuni va xufyona iqtisodiyotni o'lchash va uni bartaraf etish uchun mo'ljallangan texnologiyalar ham ushbu zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak. Bundan tashqari, xufyona iqtisodiyotning turlari, uning sabablari va oqibatlari borasidagi tadqiqotlar ham takomillashtirishga muhtojdir. Jahon banki tomonidan har ikki yilda dunyo mamlakatlarida xufyona iqtisodiyot darajasini aniqlash borasida tadqiqot olib boriladi. Ushbu tashkilot tomonidan so'nggi ma'lumotlar 2021-yilda taqdim etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot olimlar Elgin, C., M. A. Kose, F. Ohnsorge, and S. Yu. Tomonidan o'tkazilgan. Tadqiqot natijalari 1990-2018-yillar ma'lumotlarini o'z ichiga olib, unga ko'ra dunyo bo'yicha 156 ta davlatda xufyona iqtisodiyot darajasi o'rtacha 31.9 foizni tashkil etgan. Keltirilgan ko'rsatkichlar orasida eng yuqori ko'rsatkichlar Gruziya (YaIMning 66.6 foizi) va Boliviya (YaIMning 65.6 foizi)ga tegishli bo'lgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar AQSH (YaIMning 8.9 foizi) va Shvetsariya (YaIMning 8.7 foizi)ga tegishli bo'lgan.

ASOSIY QISM

Jinoyat va xufyona iqtisodiy faoliyat turlari dunyo mamlakatlari hayotining ajralmas bir qismi bo'lib kelayotgani achinarli hol albatta. Shuning uchun ham deyarli barcha davlatlar ushbu faoliyatlarni ta'lim, jazolar qo'llash va qonun-qoidalar orqali nazorat qilib turishga harakat qilishadi. Albatta ushbu faoliyatni tartibga solib turish borasida qanday choralarni qo'llash, qaysi sohalarda bosimni kuchaytirish kerakligini aniqlash va tadbirlarni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun ushbu sohada qaysi tarmoqlar faol ekanligi, yashirin iqtisodiy faoliyatlar ro'y berish chastotasi haqidagi statistiklarni yuritish muhim ahamiyatga ega.

Albatta ta'kidlaganimizdek, yashirin iqtisodiyot darajasini aniq miqdorini ko'rsatish mumkin emas, va holangki ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar imkon qadar qo'lga tushmaslikka va shaxsiyatlarini sir saqlashga harakat qiladilar. Biroq, ilm fan yutuqlari orqali ushbu muammo yechish maqsadida taxminiy o'lchashlarni olib borish imkoni bor.

Bir necha tadqiqotchi olimlar tomonidan xufyona iqtisodiyotga turlicha ta'riflar keltirilgan.

Tadqiqotchi	Keltirilgan ta'rif	Manba
Mahalliy tadqiqotchilar		
M.Q.Pardayev	Yashirin iqtisodiyot deganda soliqdan qochish maqsadida nomonetar ayirboshlash, yollangan ishchilarni ro'yxatga kiritmasdan mehnat haqi uchun naqd pul to'lash, tashqaridan kiritilgan tovarlarni bojxonasiz o'tkazish kabi noqonuniy harakatlar tushuniladi	"Iqtisodiyotga oid atamalarning ta'riflari" ⁴
H.P.Abulqosimov M.H.Abulqosimov	Xufyona iqtisodiyot rasmiy statistikada u yoki bu sabablarga ko'ra hisobga olinmagan har qanday iqtisodiy faoliyat bo'lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilmaydi hamda soliqqa tortishdan chetda qoladi	"Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot" ⁵
Schneider F., Buehn A., Montenegro C. E.	Xufyona iqtisodiyot bu soliqlarni to'lashdan yoki turli ijtimoiy badallarni to'lashdan qochish, mehnat bozorini tartibga solib turuvchi qonun qoidalarni chetlab o'tish(eng kam oylik ish haqi, maksimal ish soatlari, mehnat muhofazasi talablari va hk.), statistik so'rovlarni to'ldirish yoki boshqaruvdagi qog'ozbozlikdan qochish maqsadida hukumat vakillaridan yashiringan bozor iqtisodiyotiga asoslangan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonidir	"New estimates for the shadow economies all over the world" ⁶

⁴ Pardayev M.Q. Iqtisodiyotga oid atamalarning ta'riflari. – T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2022. 148 b.

⁵ Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma.-T.: Noshirlik yog'dusi, 2019.-485-bet.

⁶ Schneider, F., Buehn, A., & Montenegro, C. E. (2010). New estimates for the shadow economies all over the world. International Economic Journal, 24(4), 443–461. doi:10.1080/10168737.2010.525974

Albatta xufyona iqtisodiyotni o'lachash borasizda tadqiqot o'tkazishdan oldin avvalo uni turlarga ajratib olish lozim. Mashhur iqtisodchi E.Fayg xufyona iqtisodiy harakatlarning to'rtta xilini ajratadi: nolegal (maxfiy, yashirincha), hisobga olinmagan, ro'yxatga olinmagan va norasmiy iqtisodiy faoliyat.

1. Nolegal iqtisodiyot. Nolegal iqtisodiyot daromad topishning qonuniy shakllari sohasini qamrab olgan, yuridik normativlarni buzuvchi iqtisodiy faoliyat tomonidan ishlab topilgan daromadning sinonimi sifatida ishtirok etadi. Nolegal tadbirkorlar qonunan ta'qiqlangan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda va xizmatlar ko'rsatishda ishtirok etadi.

2. Hisobga olinmagan iqtisodiyot. Hisobga olinmagan iqtisodiyot institutsional jihatdan o'rnatilgan, soliq kodeksida qayd etilgan fiskal qoidalarni chetlab o'tuvchi yoki ulardan bo'yin tovlavchi iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga oladi. Hisobga olinmagan iqtisodiyotdan olingan daromadlar soliq organlariga xabar qilinmaydi. Bunda "soliq bo'shlig'i" – soliq tushumlarini nazarda tutuvchi summa bilan amalda olingan daromad o'rtasidagi farq yuzaga keladi.

3. Ro'yxatga olinmagan iqtisodiyot. Ro'yxatga olinmagan iqtisodiyot hukumat statistika organlarining hisob-kitoblarini chetlab o'tuvchi iqtisodiy faoliyat turidan tarkib topgan. Bu yerda davlat milliy statistika tizimida ro'yxatga olinmagan daromad summasi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. E.Faygning fikriga ko'ra, ro'yxatga olinmagan daromad – bu amaldagi umumiy daromad bilan statistika tizimi tomonidan qayd etiladigan daromad o'rtasidagi farqdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda uyda ishlab chiqarish ro'yxatga olinmagan iqtisodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

4. Norasmiy iqtisodiyot. Norasmiy iqtisodiyot jamiyat foydasini hamda mulkchilik munosabatlarini, litsenziyalashni, mehnat shartnomalarini, moliyaviy kreditlash va ijtimoiy sug'urtalash munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar va ma'muriy qoidalar bilan belgilangan huquqlarni chetlab o'tgan holda alohida xarajatlarni tejovchi iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga oladi. U norasmiy faoliyat yurituvchi iqtisodiy agentlar tomonidan olinadigan daromadlar bilan o'lchanadi⁷

Yashirin iqtisodiyotning farqlanish mezonlari⁸

Asosiy belgilari	"Ikkinchi" yashirin iqtisodiyot	"Kul rang" yashirin iqtisodiyot	"Qora" yashirin iqtisodiyot
Sub'ektlari	Rasmiy ("oq") iqtisodiyot sektori menejerlari	Norasmiy guruhlar	Professional jinoyatchilar

⁷ Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: нео-институциональный подход. – М.: РГТУ, 2000. – С.147-148

⁸ Латов Ю.В., Ковалев С.Н. Теневая экономика: Учебное пособие для вузов. / Под. ред. д.п.н., д.ю.н., проф. В.Я.Кикотя; д.э.н., проф. г.М.Казиахмедова. – М.: «Норма», 2006. – С. 15.

Ob'ektlari	Ishlab chiqarishsiz daromadni qayta taqsimlash	Oddiy tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish	Taqiqlangan va kamyob bo'lgan tovar va xizmatlarni ishlabchiqarish
"Oq" iqtisodiyot bilan bog'liqligi	"Oq" iqtisodiyot bilan ajralmas	Nisbatan erkin	"Oq" iqtisodiyotga nisbatan avtonomdir

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xufyona iqtisodiyotni tasniflash orqali uni bartaraf etish imkoni birmuncha ortadi. Chunki iqtisodiyotning har bir tarmog'i o'ziga yarasha xususiyatlarga ega hamda ushbu tarmoqlarda uchraydigan yashirin iqtisodiyotning ko'rinishlari ham moslashgan. Ana shu xususiyatlardan kelib chiqqan holda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish yuqoriroq samara olish imkonini beradi. Demak, yashirin iqtisodiyotning namoyon bo'lish shakllarini aniqlash orqali bir quyidagi natijalarga erishishimiz mumkin bo'ladi:

1. Iqtisodiyotning qaysi sektorlarida ko'proq xufyona iqtisodiyot uchrayotganini aniqlash va shu orqali qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish;
2. Iqtisodiyot tarmoqlari xususiyatidan kelib chiqqan holda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish;
3. Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish.

O'z o'rnida aytishimiz joizki, xufyona iqtisodiyot dunyodagi hech bir davlatni chetlab o'tmagan va unga qarshi kurashish har bir jamiyat uchun zarur va shartdir.

Dunyo olimlari tomonidan turli tarmoqlardagi xufyona iqtisodiyot darajasi o'rganilgan va o'ziga yarasha xufyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari, oqibatlar va bartaraf etish yo'llari keltirilgan. Albatta iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi xufyona iqtisodiyot bir necha xususiyatlari bilan bir biridan farq qiladi. Qishloq xo'jaligi sohasida kuzatilgan tarmoqqa tegishli soliqlardan qochish holati xizmatlar ko'rsatish sohasidagi tarmoqqa tegishli soliqlardan farq qiladi va o'z navbatida ushbu holatlarni bartaraf etish uchun ishlab chiqiladigan usul va vositalar ham bir biridan farq qiladi. Xozirgi kunga qadar xufyona iqtisodiyotni turli tarmoqlarda uchrash xususiyatiga ko'ra turkumlarga ajratish olimlar tomonidan keng o'rganib chiqilmagan, va ushbu tadqiqot ishining davomi sifatida turkumlarni batafsil o'rganib chiqish maqsad qilib qo'yilgan.

REFERENCE

1. Pardayev M.Q. Iqtisodiyotga oid atamalarning ta'riflari. – T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2022. 148 b.
2. Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma.-T.: Noshirlik yog'dusi, 2019.-485-bet.

3. Schneider, F., Buehn, A., & Montenegro, C. E. (2010). New estimates for the shadow economies all over the world. *International Economic Journal*, 24(4), 443–461. doi:10.1080/10168737.2010.525974
4. Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: нео-институциональный подход. –М.: РТТУ, 2000. –С.147-148
5. Латов Ю.В., Ковалев С.Н. Теневая экономика: Учебное пособие для вузов. / Под. ред. д.п.н., д.ю.н., проф. В.Я.Кикотя; д.э.н., проф. г.М.Казиахмедова. – М.: «Норма», 2006. -С. 15.
6. Ko'chimov A., Mokhichekhra B. Historical Comparison of the Foreign Investment Climate in Small Business and Entrepreneurship in Jizzakh Region in 1991-2000 //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 120-123.
7. Qosimova D., Ko'chimov A. Fundamentals of Investment Environment in the Process of Digital Transformation of the Economy //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 55-59.
8. D. R. Najmiddinov, D. E. Shodlikov THE EFFECT OF THE SECRET ECONOMY IN A DAILY LIFE OF THE SOCIETY // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2022. №1A. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-effect-of-the-secret-economy-in-a-daily-life-of-the-society> (дата обращения: 15.04.2023).
9. Нажмиддинов, Д., & Абдурахимов, М. (2023). Yashirin iqtisodiyotning jamiyatga ta'siri. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(1), 193–196. <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp193-196>
10. Kumakovich T. A. et al. "RAQAMLI UNIVERSITET" TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 196-199.